


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
БИОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ
ГЕНЕТИКА ВА КОМПЬЮТЕРЛИ БИОЛОГИЯ
КАФЕДРАСИ

**“ГЕНЕТИКА, ГЕНОМИКА ВА
БИОИНФОРМАТИКАНИНГ ДОЛЗАРБ
МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”
МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ**
5 май 2017 йил



НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА
им. МИРЗО УЛУГБЕКА
БИОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКУЛЬТЕТ
КАФЕДРА ГЕНЕТИКА И КОМПЬЮТЕРНОЙ
БИОЛОГИИ

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И
ДОСТИЖЕНИЯ ГЕНЕТИКИ,
ГЕНОМИКИ И БИОИНФОРМАТИКИ»**
5 мая 2017 года

Тошкент – 2017

AYRIM GALOFIT, O'SIMLIKLAR BIOMASSASINING POLISAXARIDLAR TARKIBI

Xalimov F.Z., Alikulov B.S., Ismailov Z.F., Ruziyev Yu.S.,
Jiyankulova Sh.K. SamDU

O'zbekiston hududining katta qismi cho'l zonasiga to'g'ri keladi. Cho'llar o'ziga xos floristik tarkibga ega bo'lib, ular asosan mayda shoxli qoramollar uchun ozuqa sifatida foydalaniladi. Ammo cho'l o'simliklari orasida ayrim o'simliklar guruhleri, masalan, galofit o'simliklarning orasida xalq xo'jaligida maqsadli foydalanilmaydigan, ammo ko'p biomassa hosil qiladigan turlar uchraydi. Ular yog'ochligi nisbatan og'ir, tez sinuvchan va yaxshi yoqilg'i bo'ladigan poyaga ega bo'lib, issiqlik koloriyasi ko'mirdan qolishmaydi. Bu o'simliklarning poyalarini an'anaviy usulda yoqib to'liq kuydirgan holda foydalansak, katta hajmda CO₂ ajralib, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladi. Galofit o'simliklar biomassalaridan oqilona foydalanish uchun ularni fermentatsiyalash asosida bioetanol, biogaz yoki bioo'g'itlar olish imkoniyati mavjud.

Galofit tipidagi o'simliklarni Markaziy Qizilqumdagi Mingbuloq sho'rxok cho'li, Zarafshonning quyi oqimida joylashgan hududlarda uchratish mumkin. E.P.Korovin (1964) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda galofil o'simliklarning 256 turi o'sishi aniqlangan. M.G.Popov (1940), Q.Z.Zokirov (1955) va I.I.Granitov (1969)lar Qizilqum hamda Zarafshon vodiysida tarqalgan sho'rxok cho'llardagi o'simliklar florasini tekshirishgan [8].

Markaziy Qizilqumning sho'rxok va sho'rtob tuproqli, sho'rxok botiqlar hamda artezian quduqlari atrofidagi sho'rlangan maydonlarda keng tarqalgan xo'jalik maqsadlarida deyarli foydalanilmaydigan galofit o'simliklar jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Sarsazan - *Halochnimum strobilaceum*;
- Qorabaroq - *Halostachys belangeriana*;
- Yulg'un - *Tamarix hispida*;
- Qora saksovul - *Haloxylon aphyllum*.

Yuqorida keltirilgan o'simliklar boshqa galofit o'simliklardan o'zining ko'p biomassa hosil qilishi, chorva mollari uchun ozuqa sifatida deyarli ishlatilmasligi hamda dorivorlik xususiyatlari kamligi bilan ajralib turadi. Ularning biomassalaridan mikroorganizmlar ishtirokida bioetanol va biogaz ajratib olishda texnologik jarayonning samarasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri foydalanilayotgan biomassalarning kimyoviy, jumladan, polisaxaridlar tarkibi hisoblanadi.

Tahlil qilingan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, Markaziy Qizilqum hududida tarqalgan energetik mahsulotlar olish uchun ijobiy xususiyatlarga ega o'simliklarning polisaxaridlarini miqdor va sifat jihatdan o'rganishni maqsad qilib oldik. O'simliklar biomassalarining polisaxaridlar tarkibi B.N.Stipanenko (1978) va N.K.Kochetkova (1967) usullaridan foydalanilgan holda aniqlandi. Aniqlangan ma'lumotlar Lakin (1992) bo'yicha statistik sarhisob qillindi.

1-jadval

O'simliklar tarkibidagi polisaxaridlar miqdori, % da

№	O'simliklarni ng nomlari	Spirtda eruvchi polisaxaridla r (fruktoza, r glukoza, saxaroza, fruktooligosa xaridlar)	Ishqorda eruvchi polisaxaridla r (gemiselluloz a, pektin)	Selluloza
1	<i>Halochnum strobilaceum</i>	1,2	22,3	26,4
2	<i>Halostachys belangeriana</i>	1,5	6,8	30,6
3	<i>Tamarix hispida</i>	2,8	13,2	28,8
4	<i>Haloxylon</i>	2,1	6,0	32,8